

## YALPI HUDUDIY MAHSULOT



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yilning yanvar – sentabrda Jizzax viloyati YaHM hajmi joriy narxlarda 10 377,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 5,1 % ga o'sdi.

2019-yil yanvar-sentabr yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 7 611,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,0 % ga oshdi.


O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMni shakllantirishda Jizzax viloyatining qo'shgan hissasi 2,9 % ni tashkil etdi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish (yanvar-sentabr)

	Mlrd. so'm		2018-yilga nisbatan, % da
	2018-yil	2019-yil	
<b>I. YaHM</b>	<b>8 186,6</b>	<b>10 377,9</b>	<b>105,1</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	7 937,1	9 874,2	105,0
Mahsulotlarga sof soliqlar	249,5	503,7	108,4
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>7 937,1</b>	<b>9 874,2</b>	<b>105,0</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	4 577,3	5 358,1	102,6
<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>1 259,8</b>	<b>1 813,6</b>	<b>113,1</b>
sanoat	714,1	1 071,1	104,1
qurilish	545,7	742,5	124,8
<b>Xizmatlar</b>	<b>2 100,0</b>	<b>2 702,5</b>	<b>105,6</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	568,6	665,0	103,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	368,1	402,9	104,8
boshqa xizmat tarmoqlari	1 163,3	1 634,7	106,6

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati – 102,6 %, (YaHM tarkibidagi ulushi – 54,3 %), sanoat - 104,1 % (10,8 %), qurilish – 124,8 %, (7,5 %), xizmatlar – 105,6 %, (27,4 %).

### 2019-yil yanvar - sentabr uchun YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari



### Iqtisodiy faoliyat turlari


Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 95,1 % ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 4,9 % ni tashkil etdi.

Qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi YaHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 3,4 % punktga kamaydi va hisobot yilida 54,3 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 2,4 % punktga ko'paydi va hisobot yilida 18,3 % ni tashkil etdi.


Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 1,0 % punktga ko'paydi va hisobot yilida 27,4 % ni tashkil etdi.

## Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan foizda)

2018-yil yanvar - sentabr



2019-yil yanvar - sentabr




- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar


Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarmoqlari tarkibidagi ulushi 6,7 % ni (2018-yil yanvar – sentyabrda 7,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 4,1 % ni (4,6 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 16,6 % ni (14,6 %) tashkil etdi.

**Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi  
(jamiga nisbatan foizda)**

**2018-yil  
yanvar-sentyabr**



**2019-yil  
yanvar-sentyabr**



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

Jizzax viloyati statistika boshqarmasi  
Statistika faoliyatini tashkil etish  
va yig'ma axborot-tahliliy ishlari bo'limi  
Nashr uchun mas'ul: G'.Mamadiyev  
Telefon: (0371) 230-83-42